XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-oktabr VI-74-115-8-118-K/24 Uzun tumani

Uzun tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogodeziya markazi Surxondaryo hududlararo boʻlinmasining 2024-yil 8-avgustdagi Uzun tumani hokimiga yuborilgan 01-117-sonli xat orqali maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Uzun tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil 15-avgustdagi 14-01/85-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Uzun tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Sariosiyo tumani bilan chegaradosh boʻlgan Sariosiyo, Denov, Shoʻrchi va

Qumqo‘rg‘on tumanlari hamda Tojikiston Respublikasi o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma′muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun′iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘iga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Sessiya raisi TOSHBOYEV BURI ISHMAMATOVICH

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2024-yil 15-oktabrdagi
VI-74-115-8-118-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Uzun tumanining chegara

TAVSIFI

O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalari chegara chizig‘idagi, Sariosiyo tumanlari va Uzun tumani chegara chiziqlari kesishgan joydagi Termiz-Dushanbe temir yo‘lining g‘arb tomonida loylashgan nuqtani boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda *(shimoliy kenglik 38° 25′ 11,367″ , sharqiy uzunlik 68° 4′ 27,992″).*

A dan B gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 1-2 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2 nuqta chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish chizig‘idan olindi *(shimoliy kenglik 37° 43′ 25,475″ , sharqiy uzunlik 68° 1′ 14,668″).*

B dan D gacha Qumqo‘rg‘on tumani yerlari bilan 2-3 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2345 metr masofani o‘tib, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1307 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i bilan avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 347 metr, shimoliy yo‘nalishda 309 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 659 metr masofani o‘tib, soyga tutashadi va sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 221 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda yo‘nalishda 1016 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 146 metr, so‘ngra, shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 248 metr, g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 605 metr, masofani o‘tib 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 37° 45′ 44,082″, sharqiy uzunlik 67° 58′ 17,643″).*

D dan E gacha Sho‘rchi tumani yerlari bilan 3-13 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

3-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1859 metr keyin shimoliy yo‘nalishda 4571 metr masofani o‘tib soy bo‘yidagi 4-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik 37° 49′ 9,636″, sharqiy uzunlik 67° 58′ 53,761″*).

4-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval umumiy shimoliy yo‘nalishda 1730 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3199 metr, so‘ng umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgangan holda 837 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 53 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 296 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 671 metr masofani o‘tib dala yo‘li bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 37° 50′ 40,100″, sharqiy uzunlik 67° 57′ 25,852″).*

5-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval shimoliy – shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2097 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1142 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 929 metr, so‘ngra shimoliy-yo‘nalishda 8316 metr va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3499 metr masofani o‘tib, 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 37° 58′ 20,876″, sharqiy uzunlik 68° 0′ 49,622″).*

6-nuqtadan chegara chizig‘i avval soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-yo‘nalishda 916 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi 414 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘iga tutashadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1111 metr masofani o‘tib, soyga tutashadi so‘ngra soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 185 metr keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 64 metr masofani o‘tib soy bo‘yidagi 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 37°59′ 21,750″, sharqiy uzunlik 68° 1′ 42,995″).*

7-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 554 metr keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4149 metr masofani o‘tib soy bo‘yidagi 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 0′ 13,918″, sharqiy uzunlik 68° 1′ 4,670″).*

8-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 4632 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5146 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda soyning o‘ng qirg‘og‘i bilan 350 metr masofani o‘tib, dala yo‘liga tutashadi va yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1781 metr masofani o‘tib soy bo‘yidagi 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 2′ 15,898″, sharqiy uzunlik 68° 0′ 20,575″).*

9-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1018 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3438 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 73 metr masofani o‘tib, so‘ngra dala yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1678 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 3′ 51,403″, sharqiy uzunlik 67° 58′ 29,581″).*

10-nuqtadan chegara chizig‘i soyining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 9173 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 5′ 36,436″, sharqiy uzunlik 67° 54′ 27,091″).*

11-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining avval janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 103 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 555 metr, so‘ng 4R-101 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘lini shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 489 metr masofani o‘tib, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 341 metr masofani o‘tib Surxondaryosi qirg‘og‘ida joyalashgan 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 6′ 6,520″, sharqiy uzunlik 67° 53′ 54,039″).*

12-nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy yo‘nalishda Surxondaryosini suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 403 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini nhisobga olgan holda 1737 metr,so‘ng shimoliy yo‘nalishda 281 metr masofani o‘tib, daryo bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 6′ 57,240″, sharqiy uzunlik 67° 54′ 47,621″).*

E dan F gacha Denov tumani yerlari bilan 13-21 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

13-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Surxondaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2528 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3993 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 9′ 41,268″, sharqiy uzunlik 67° 56′ 40,675″).*

14-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Surxondaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 488 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7940 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga *(shimoliy kenglik 38° 13′ 42,744″, sharqiy uzunlik 67° 57′ 48,150″).*

15-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Surxondaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan

barcha burilishlarni hisobga olgan holda 560 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy - shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ko‘prik bo‘ylab 267 metr masofada Surxondaryoni kesib o‘tib daryo qirg‘og‘ida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 14′ 2,805″, sharqiy uzunlik 67° 57′ 50,128″).*

16-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Surxondaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1860 metr,keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 1238 masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 15′ 6,266″, sharqiy uzunlik 67° 58′ 24,595″).*

17-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy shimoliy-shimoliy- sharqiy yo‘nalishda Surxondaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3434 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 15′ 35,348″, sharqiy uzunlik 67° 58′ 27,282″).*

18-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-shimoliy yo‘nalishda Surxondaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1009 metr, keyin umumiy shimoliy -shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1278 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 17′ 5,328″, sharqiy uzunlik 67° 59′ 44,722″).*

19-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Surxondaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1166 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 18′ 11,294″, sharqiy uzunlik 68° 0′ 20,388″).*

20-nuqtadan chegara chizig‘i avval To‘palang daryoning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5596 metr masofada Termiz, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo tumanlararo temir yo‘lini kesib o‘tgan holda daryo qirg‘og‘ida joylashgan
21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 21′ 7,901″, sharqiy uzunlik 67° 58′ 51,131″).*

F dan A gacha Sariosiyo tumani yerlari bilan 21-1 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

21-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 74 metr masofada To‘palang daryosini kesib o‘tib keyin ariqqa tutashadi va shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1349 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 507 metr so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°22′ 8,423″, sharqiy uzunlik 67° 58′ 38,534″).*

22-nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 453 metr keyin shimoliy yo‘nalishda 107 metr so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 343 metr masofani o‘tib to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 30 metr masofada Sarosiyo va Uzun tumanlarini bog‘lovchi avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 336 metr masofani o‘tib, keyin ariqqa tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 366 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 22′ 33,624″, sharqiy uzunlik 67° 59′ 7,931″).*

23-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 520 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 133 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 154 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 145 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 307 metr masofani o‘tib so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 284 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 298 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 22′ 51,738″, sharqiy uzunlik 67° 59′ 30,732″).*

24-nuqtadan chegara chizig‘i avval qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 94 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 150 metr so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 209 metr so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan 830 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 22′ 23,504″, sharqiy uzunlik 68° 0′ 2,057″).*

25-nuqtadan chegara chizig‘i avval dala yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 116 metr masofani o‘tib, keyin ariqqa tutashadi va sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi 83 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 238 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘liga tutashib yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 225 metr masofani o‘tib, so‘ngra ariqning suv oqimiga qarshi sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 315 metr masofani o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 303 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 22′ 55,203″, sharqiy uzunlik 68° 0′ 19,561″).*

26-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 878 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 969 metr masofani o‘tib, so‘ng avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 313 metr, so‘ngra dala yo‘lining shimol tomoni bilan avval janubiy yo‘nalishda 160 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 195 metr,so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 277 masofani o‘tib Obizarang daryosini kesib o‘tgan holda daryo

bo‘yidagi 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 23′ 41,067″, sharqiy uzunlik 68° 0′ 21,873″).*

27-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Obizarang daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2648 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 863 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 798 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 378 metr masofani o‘tib daryo bo‘yidagi 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 25′ 52,830″, sharqiy uzunlik 68° 0′ 52,363″).*

28-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2942 metr, masofani o‘tib keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 719 metr masofani o‘tib ariq bo‘yidagi 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 25′ 19,623″, sharqiy uzunlik 68° 2′ 36,094″).*

29-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 461 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 80 metr masofada 4-R108 A avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 132 metr masofani o‘tib, so‘ng xo‘jaliklararo ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 138 metr masofani o‘tib, so‘ngra tog‘i chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 39 metr,shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 60 metr, shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 59 metr, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 37 metr, shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 27 metr masofani o‘tib, keyin dala yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 23 metr masofani o‘tib, qabriston devoriga tutashadi va devor bo‘ylab avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 56 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 397 metr,keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 222 metr masofani o‘tib, xo‘jaliklararo ichki yo‘liga tutashib yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 103 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 30-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 24′ 52,239″, sharqiy uzunlik 68° 2′ 49,890″).*

30-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi 1587 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 25′ 38,076″, sharqiy uzunlik 68° 3′ 23,115″).*


31-nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 411 metr keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 504 metr so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 688 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 114 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 427

metr, masofani o‘tib boshlang‘ich birinchi nuqtaga tutashadi 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38° 25' 11,367", sharqiy uzunlik 68° 4' 27,992").*

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2024-yil 15-oktabrdagi
VI-74-115-8-118-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati Uzun tumani
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha Tojikiston Respublikasi yerlari
B dan D gacha Qumqo'rg'on tumani yerlari
D dan E gacha Sho'rchi tumani yerlari
E dan F gacha Denov tumani yerlari
F dan A gacha Sariosiyo tumani yerlari

Shartli belgilar

Chegaraning burilish nuqtalari
Davlat chegaralari
Tumanlar chegarasi